

ISSN: 2181-4562

DOI Journal 10.56017/2181-4562



IMFAKTOR
PAGES

JOCAA

МАДАНИЈАТ ВА САЊАТ

Journal of Culture and Art

Volume I, Issue 3

MAY | 2023

КУЛТУРА И ИСКУССТВО



ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 3-СОҢ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-3

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-3

ТОШКЕНТ – 2023

МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 3 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2023-3>

БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол

Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, профессор в.б., Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим Козимович

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор

Ходжаметова Гулчира

Илишевна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих фанлари номзоди, профессор

Абдувоҳидов Фахриддин

Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, доцент, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Кадиров Рамз Турабович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна нутқи” кафедраси доценти

Умаров Мамур

Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида

Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси” кафедраси мудир, санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон

Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло

Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил изланувчи (PhD)

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи/Page Maker/Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-ўй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

МАДАНИЯТ ВА САЊЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

ТОҶИАХМЕДОВА Muyassar Haydarovna*Namangan davlat universiteti**Madaniyatshunoslik kafedrasida katta o'qituvchisi*<https://doi.org/10.5281/zenodo.7976727>

МА'НАВИЙ ҚАДРИЯТЛАР ВА УЛАРНИ YОSHЛАР ОРАСИДА О'RGANISH MUAMMOLARI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek xalqi milliy madaniyatining ajralmas qismi bo'lgan ma'naviy qadriyatlar va ularning yoshlar o'rtasida o'rganish bilan bog'liq masalalar atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: qadriyat, madaniyat, ma'naviyat, axloq, ta'lim-tarbiya, yoshlar, ijtimoiy siyosat, urf-odat, an'ana, oila, jamiyat.

ТАДЖИАХМЕДОВА Муяссар Хайдаровна*Старший преподаватель кафедры культурологии**Наманганского государственного университета*

ДУХОВНЫЕ ЦЕННОСТИ И ПРОБЛЕМЫ УЧЕНИЯ ИХ У МОЛОДЕЖИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье подробно анализируются вопросы, связанные с духовными ценностями, которые являются неотъемлемой частью национальной культуры узбекского народа, и их усвоением среди молодежи.

Ключевые слова: ценность, культура, духовность, нравственность, воспитание, молодежь, социальная политика, обычай, традиция, семья, общество.

ТАҶИАХМЕДОВА Muyassar Haydarovna*Senior teacher of the Department of**Cultural Studies of Namangan State University*

SPIRITUAL VALUES AND THE PROBLEMS OF LEARNING THEM AMONG YOUNG PEOPLE

ANNOTATION

In this article, the spiritual values, which are an integral part of the national culture of the Uzbek people, and the issues related to their learning among young people are thoroughly analyzed.

Key words: value, culture, spirituality, morality, education, youth, social policy, custom, tradition, family, society.

Bashariyat ko‘p ming yillik tarixi davomida erkin, baxtli va go‘zal xayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan xilma-xil qadriyatlarni yaratdi, inson, uning huquqi va erkinliklarini ximoya qiladigan qonunlar, siyosiy tashkilotlarni bunyod etdi. Insonni go‘zal yashashi uchun zarur bo‘lgan badiiy estetik qadriyatlarni rivojlantirdi, kishilarning bir-biriga va jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini belgilab beradigan ahloqiy qoidalar majmuasini joriy etdi. Mazkur ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘naviy va axloqiy qadriyatlar jamiyat taraqqiyotida salmoqli o‘rin egallab, kishilarning insoniy fazilatlarini yuksaltirishda katta xizmat qilib kelmoqda. Lekin shu bilan bir qatorda inson o‘zi yaratgan ijtimoiy, siyosiy, madaniy-ma‘naviy, ahloqiy qadriyatlarni ko‘p xollarda poymol qilib kelayotganligini ham tan olishimiz kerak. Qonunbuzarlik, axloqsizlik, millatimizning urf-odat va an‘analarga zid keluvchi xatti-harakatlarini aholi, ayniqsa, yoshlar ichida avj olib ketayotgani bunga misol bo‘la oladi. Bularning oldini olish hozirgi kunda jamiyatimiz oldida ko‘ndalang turgan dolzarb vazifadir.

Kishilarni qadriyatlarga iste‘molchi yoki kuzatuvchi sifatida qarash kayfiyatidan xoli etib, aksincha ularni yanada ko‘paytirish, yuksaltirish payida bo‘lishlariga erishishiga alohida e‘tibor berish kerak. Ma‘lumki, xayotda hech bir narsa adabiy emas. Bu qadriyatlarga ham taalluqlidir. Shunday ekan, ularning doimo boyitib, rivojlantirib, ko‘paytirib, yangilab turmog‘qimiz darkor! Qadriyatlar katta ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ular o‘tmish bilan hozirgi kun o‘rtasidagi vorisiylikni ifodalaydi, shu tufayli millatning tarixi, uning o‘tmish xayoti, madaniyati gavdalanadi. Shuning uchun ham har bir siyosiy tuzum, har bir davlat qadriyatlaridan o‘z maqsadi, manfaati yo‘lida foydalanib kelgan va hozir ham shunday bo‘lmoqda. Qadriyatlar o‘z-o‘zidan bevosita insonning ma‘naviy qiyofasi, turmush tarzi, umuman jamiyat taraqqiyotini belgilay olmaydi. Qadriyatlarning ahvoli, ahamiyati, insonga ko‘rsatadigan ta‘siri, uning istiqboli u yoki bu jamiyatdagi mavjud ijtimoiy tuzum tomonidan olib borilayotgan siyosat, uning manfaatlari bilan uzviy bog‘langandir. Buni biz o‘zbek xalqi milliy qadriyatlarning o‘tmishdagi va hozirgi ahvolidan yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma‘naviy qadriyatlarimiz jahon hamjamiyatiga eltuvchi ishonchli vosita bo‘lib xisoblanadi. Barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlik xalqimizning buyuk ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarini tashkil etadi. Xalqlar o‘rtasida tinchlik-totuvlik, do‘stlik va o‘zaro hamkorlik munosabatlarini o‘rnatish millatimizning ongiga, qoniga chuqur singib ketgan. O‘zbekiston jahonda tinchlik va xavfsizlikni saqlash, tinchliksevar mamlakatlar bilan har tomonlama hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish hamda taraqqiyotga erishishning o‘ziga xos yo‘lin tanlagan. SHuning uchun ham uning jaxon hamjamiyatidagi obro‘ va e‘tibori tobora ortib bormoqda. Barqarorlik, tinchlik, totuvlik-mustaqillik tufayli qo‘lga kiritilgan eng katta yutug‘imizdir. Shunday ekan, bugungi kunda ularni qadrlash, avaylash-asrash, himoya qilish – barchamizning eng dolzarb, eng olijanob vazifamiz bo‘lib qolmog‘i kerak.

Insonning oila, jamiyat, xalq manfaatlarini anglab qilayotgan har qanday hatti-harakati yaxshilik kategoriyasi nuqtai nazaridan baholanadi. Burch – kishining Vatan, xalq, jamoa, oila bilan o‘zaro munosabatlarida o‘z oldidagi majburiyat va mas‘uliyatini sezish, ularga nisbatan sadoqatini ifodalaydi. Vijdon – kishining hatti-harakatiga o‘zining munosabati, kishining o‘z xulq-odobi uchun ma‘naviy mas‘uliyat hissini ifodalaydi. SHa‘n tushunchasi shaxsga jamiyat beradigan ijtimoiy bahoni belgilovchi va shaxsiy qadr-qimmatini ifoda qiluvchi kategoriyadir. Baxt tushunchasi insonning ijtimoiy va shaxsiy hayotidagi o‘z faoliyati, ro‘yobga chiqqan orzu-istak va maqsadlaridan mamnunligini bildiradi.

Milliy qadriyatlar har bir millatning mohiyatini, uning muayyan mustaqil ijtimoiy etnik birlik ekanini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir. Millatning ruhiyati, tarixiy an‘analari, ma‘naviy extiyojiga mos kelmaydigan begona qadriyatlarni unga zo‘rlab singdirish mumkin emas. Ayniqsa, boy tarixiy merosga ega bo‘lgan xalqlar ma‘naviy hayot borasidagi zo‘ravonlikni ruhan qabul qilmaydilar. Xalqlarga yangi ma‘naviy qadriyatlarni singdirish uchun avval ularga nisbatan extiyoj tug‘dirmoqda.

Mintaqaviy qadriyatlar iqtisodiyoti, madaniyati, tarixi, tili, dini, urf-odat va an'analari mushtarak bo'lgan xalqlar manfaatlariga xizmat qiladigan tabiiy va ijtimoiy xodisalar majmuasini tashkil etadi. Mintaqaviy qadriyatlarga misol sifatida O'rta Osiyo xududida istiqomat qiluvchi xalqlarga xos bo'lgan qadriyatlarni keltirish mumkin. Bir zaminda unib o'sgan xalqlarning tarixi, tili, madaniyati, dini, urf-odati va an'analarida juda ko'p umumiylik mavjud. Ular hamisha bir-birlariga og'a-ini, quda-anda bo'lib kelganlar. Qadimdan bir man'naviy-ruhiy iqlimdan nafas olib kelgan xalqlarimiz bugungi mas'uliyatli davrda aql, zakovat, shijoat, dunyoviy salohiyat va milliy g'urur talab etadigan bir pallada yana ham yaqinroq, yana ham mehr-oqibatliroq bo'lishlari lozimligini hayotning o'zi taqozo qilmoqda.

Mintaqaviy qadriyatlar turkumiga O'rta Osiyoda yagona iqtisodiy xudud tashkil qilish. Orol muammolarini xal qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, mintaqa xalqlarini tibbiy va ijtimoiy jihatdan himoyalash, boy tarixiy, ma'naviy merosimizni avaylab asrash kabilar kiradi [1, B.24].

Asrlar davomida xalqning talabi asosida yaratilgan qadriyatlarda olg'a surilgan ilg'or g'oyalarni o'z ongida yaxlit shakllantirgan, ularni mohiyatini amaliy faoliyatida namoyon qila oladigan, oilaning, xalqning, jamiyatning bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadigan shaxs ma'naviy madaniyatli xisoblanadi.

Kelgusi avlodlar ongiga singdirish jamiyat har bir a'zosining vijdon ishi bo'lmog'i kerak. Shaxsning ma'naviy madaniyatini shakllantirishga qo'yiladigan hozirgi zamon talablarini amalga oshirish muammolari dinamik harakterga ega bo'lib, ijtimoiy tuzum taraqqiyoti bilan bog'liq bo'ladi. Madaniyat bu jamiyat taraqqiyoti darajasini harakterlovchi, ijtimoiy tarixiy amaliyot jarayonida mujassam bo'ladigan tuzum bo'lib, shaxsning ijtimoiy va ma'naviy mazmunini tashkil etadi. Madaniyat shaxs kamolotiga moddiy (texnika, ishlab chiqarish tajribasi, moddiy boyliklar) va ma'naviy (fan, adabiyot san'at, maorif, din, umuminsoniy va milliy) qadriyatlar jihatdan ta'sir etadi.

Moddiy va ma'naviy madaniyatning o'zaro aloqasi ta'sirlashishi natijasida aqlan, yetuk, axloqan dunyoqarashi keng, yaxlit shakllangan shaxs tarkib topadi. Jamiyatning moddiy madaniyati uning ma'naviy madaniyati ta'sirisiz, inson ongi va faoliyatidan tashqarida yaratilmaydi. Inson biror moddiy boylik yaratar ekan, avvalo uning ishlab chiqarish jarayoni va ta'lim tarbiyaviy natijasini o'z ongida tasavvur etadi. Amaliy ahamiyatini oldindan ko'ra biladi, huddi shu jarayon ma'naviy manbalarni yaratishga ham ta'luqli bo'ladi.

"Ma'naviy qadriyatlarning yoshlar ma'naviy madaniyatining shakllantirishdagi ustuvorligi quyidagicha izohlandi:

- ma'naviy qadriyatlar insonlarning talab va ehtiyojlari asosida aql-zakovat bilan yaratilgan, ularning tasavvuri, tafakkuri, kelgusi orzu - istagi, e'tiqodi, ahloq-qoidalarini o'zida mujassam etgan, amaliy xayotda sayqal topgan ma'naviy boylik bo'lib, tarbiyaning tayanch vositasi hisoblanadi.

- ma'naviy qadriyatlar tarixiy taraqqiyot bosqichiga ega, hayotda sinalgan, ijtimoiy taraqqiyotda ahamiyatli, avloddan-avlodga o'tuvchi ijtimoiy xodisadir.

- ma'naviy qadriyatlar jamiyat rivojining negizi, xalqning tarixiy taraqqiyotida erishilgan barcha yutuqlarini ifodalovchi va saqlovchi qudratli omildir" [2, B.6].

Har qanday qadriyatni anglash negizida ikki bosqich mavjud bo'lib, birinchisi u yoki bu ma'naviy narsaning siymoni xaqiqatda mavjudligini xis qilish, ikkinchi esa shu mavjudlik orqasida ifodalangan maqsad. Yoshlar orasida milliy qadriyat va ularni o'rganish jarayonida mummolarni yuzaga kelishining quyidagi ob'ektiv va sub'ektiv sabablari mavjud bo'ladi:

- ota-onalar va katta yoshdagi kishilarning ma'naviy bilimlarining chegaralanganligi;

- hayotiy tajriba bilan ilmiy haqiqat o'rtasidagi nomutanosiblik;

- ayrim bug'indagi kadrlarning bilimsizligi va dunyokarashi torligi.

Yoshlar o'rtasida uyushtirilgan ma'naviy qadriyatlar haqida faqat bilim, malaka, ko'nikma bilan qurollantirilmaydi, balki ular ma'naviy madaniyat muammolarini erkin ongli va adolat bilan yecha olishga, o'z munosabatlarini bildirishga, to'g'ri xulosa chikara olishga, milliy g'urur asosida ularni avaylash, sevish umrbokiyiligini ta'minlashga o'rgatiladi.

“Insonning o‘zi va o‘z oilasining baxt-saodati yo‘lida mehnat qilishga tayyor ekanligi uning ichki imkoniyatlarini tashkil etadi. Bizning ko‘lamli ijtimoiy iqtisodiy niyatlarimiz xalqimizning mehnatsevarligidan kelib chiqadi. Har bir fuqaroning mustaqil davlat bilan mag‘rurlanishi uning o‘z davlatining mustahkamlanishi va gullab yashnashi uchun shaxsiy xissa qo‘shishga tayyorligidandir. Faqat mana shundagina fuqoro davlatning ishonchi tayanchiga aylanadi” [3, B.63].

Bugungi kunda barpo etilayotgan fuqorolik jamiyatining ham o‘z oldiga quygan maqsadlaridan biri bu komil insonni tarbiyalash ekan, u qaysi soha vakili bo‘lishidan qat‘iy nazar, avvalo vaziyat mohiyatini teran anglaydigan, mustaqil qarashlarni ifoda eta olishi talab etiladi. Komil insonni tarbiyalashda esa xalqimiz azaldan milliy an‘ana va qadriyatlarimizga tayanib kelishgan.

O‘zbek xalqining eng kadimiy davrlaridan boshlab hozirga qadar davom etib kelayotgan qadriyatlari haqida fikr yuritar ekanmiz, ana shu qadriyatlarning ayrimlariga to‘xtalib o‘tish joizdir. Ota-onani qadrlash, ularning tengsiz, o‘lchovsiz xizmatiga sodiq, bulish, duolarini olish bolalarning farzandlik burchidir. Bu milliy qadriyatlarimizning eng muhim talablaridan biridir.

She‘riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy aytganlaridek, “ota-onani xurmat qilish farzandlar uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmating qancha ortiq, bo‘lsa ham kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, uning boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi. Ikki dunyoing obod bo‘lishin istasang, shu ikki odamning roziligini ol! Tunu kunga nur berib turgan birisini oy, birisini quyosh bil, ular chizgan chiziqdan tashqariga bir qadam ham bosma, amma xizmatni sen odob bilan bajar.

Kattalarga xurmat, kichiklarga mehr-shafqat, ota-onalarga e‘zoz, farzandlarga mehr-sadoqat bular insonni inson qilib turadigan axloqiy va ma‘naviy qadriyatlarimizdan xisoblanadi.

Milliy qadriyatlar xususida fikr yuritganda yana bir muhim masalani alohida ta‘kidlashga to‘g‘ri keladi. Ma‘lumki, qadimiy urf-odatlarimizga ko‘ra, o‘zbek oilalarida, ayniqsa ko‘p bolali xonadonlarda yoshlar bolaligidanoq, mehnat quchog‘ida tarbiyalanadi, mehnatda chiniqadi. Oilada ota-onaga yordam berib mustaqil mehnat qilishga intilib, hech bir bola mayib bo‘lgan emas. Aksincha, mehnat qilib bola chiniqqan, murakkab hayot yo‘lida uchrashi mumkin bo‘lgan har qanday to‘siqlar va qiyinchiliklarni bardosh bilan yengib o‘tgan, ota-onasining qadriga yetgan, yoshligidan ko‘zi pishib, oqu qorani tanigan. Bilimni sevish va ardoqlash, olimu fuzalolarni, ustozlarni hurmat qilish, mardlik, odamiylik, kamtarlik, adolat, halollik va haqqo‘ylik kabi insoniy fazilatlarini ulug‘lash borasida ham ibrat bo‘ladigan ajoyib qadriyatlarimiz ko‘p.

Bilim va zakovatning qimmati, jamiyat taraqqiyoti va shaxs ma‘naviy-axloqiy kamoloti uchun ahamiyati shu qadar kattaki, uni ta‘riflashni ado qilib bo‘lmaydi. Bilim eng katta boylik ekanligi, dunyoda undan qadrlirok, hych narsa yo‘qligi to‘g‘risida qadimgi xind dostoni «Kalila va Dimna», Nizomulmulkning «Siyosatnoma», Nosir Xisravning «Saodatnoma», «Tushnoma», Yusuf Xos Xojibning «Qutadg‘u bilik» Axmad Yugnakiyning «Xibatul xaqoyiq», Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmat», Alisher Navoiyning «Xamsa» kabi jaxonga mashxur asarlarida bir-biridan muhim, bir-biridan sermazmun fikrlar bayon yetilgan.

XII- asrda ijod qilgan donishmand shoir Ahmad Yugnakiyning «Xitobul xaqoyiq» («Haqiqatlar hadyasi) asarida ilmi bilan ilmsizning, olim bilan johilni qiyoslab bayon etgan quyidagi fikri bunga misol bo‘ladi: "Bilim to‘g‘risida so‘zlamodqaman, so‘zimni yaxshi tingla, bilimdon kishilarga o‘zingni bog‘la. Bilim baxt - saodat yo‘llari o‘rganiladi, bilim egallab saodat yo‘lini top. Bilimli kishi qimmatli oltindir, bilimli bilan bilimsiz qachon teng bo‘ladi? er kishi bilim o‘rganib bilguvchi bo‘lib qoladi, bilimsiz tiriklikda ko‘rgiliklar ichida qoladi. Bilimli yer o‘lsa ham oti o‘lmaydi, bilimsiz kishi hayot chog‘ida ham uning oti o‘likdir”.

Yusuf Xos Xojibning fikricha, zakovat korong‘u tundagi ma‘shal kabidir, bilim esa nur tarqatuvchi yorug‘likdir. Kimda zakovat bo‘lsa, o‘sha asl odam bo‘ladi, kimda bilim bo‘lsa u martabaga erishadi. Odam zakovati tufayli asl ataladi, bilim gavhar kabi bir yerda to‘planib turadi, u zakotning konidir. Mushk-anbar va bilim bir-biriga uxshash narsalardir, ularni o‘zidan bo‘laklardan yashirib saqlab bulmaydi. Mushki-anbarni yashirsang, uni tiling oshkor qiladi. Bilim o‘z sohibini qashshoq qilmaydigan bitmas tunganmas boylikdir, o‘g‘ri va qalloblar uni hych o‘g‘irlab ola olmaydi.

Odamlarda ilmu hunar qancha ko'p bo'lsa, u o'zini shuncha oddiy, kamtarin tutadi. Kamtarlik odamni bezaydi, obro'sini oshiradi, do'stini ko'paytiradi. Kamtarlik, sermulohazalik, vazminlik, og'ir-bosiqlik singari insonni ahloqiy-ma'naviy jihatdan go'zal qilib ko'rsatadigan yuksak fazilat va xislatlar kishining bilimidan kelib chiqadi. Buni bizning ajdodlarimiz orasida o'tgan ulug' va dono kishilar, shoir va faylasuflar ham ko'p ta'kidlab o'tganlar.

Ana shu yerda ulug' bobomiz Alisher Navoiyning "Mahbubul-qulub" asarida kamtarlik, tavoze' haqidagi fikrlarini keltirib o'tish joizdir. «Tavoze' kishi xuzurida o'zini past tutish, kamtarlik ko'rsatishi, xalq muhabbatini o'ziga tortar va odamlarni shu ishni bajaruvchi bilan do'stlashtirar. Tavoze' do'stlik chamanida toza gullar ochar va u chamandan oshnolik va ulfatchilik bazmiga xilm-xil gullar sochar.... Adabdan muhabbat bezak va pardoz etadi, adab tarkidan do'stlikning ravnaq va bahosi ketadi. Tavoze'li va odoblilarga ta'zim va hurmat etadi va urug'ni ekan bu qimmatbaxo xosilni to'plab oladi» [5, B.87].

Xalq- o'zining ming yillik an'ana va tajribalari, so'nmas xotirasi va buyuk tuyg'ulari bilan yashab kelayotgan qudratli kuch [4, B.30]. Bu kuchning barhayotligi, ma'naviy merosining bardavomligi shu xalq yosh avlodi ularni o'z turmush tarziga qay darajada singdira olgani bilan harakterlanadi, shuningdek, mamlakatning xalqaro miqiyosda o'z o'rnini egallashiga xizmat qiladi.

Boy va rang-barang madaniyatimiz, urf-odat va an'analarimiz, barcha qadriyatlarimiz millatimizning ma'naviy va ruhiy boyligini tashkil etadi. Buni chuqur o'zlashtirib, tushunib, anglab olgan inson oldiga qo'ygan har qanday maqsadiga erishishi mumkin. Chunki xalqimiz tarixi, uning madaniyatini yaxshi bilgan kishi hech qachon ko'r-ko'rona ish tutmaydi. Aksincha, tarix saboqlaridan kerakli xulosa chiqarib, xozirgi vaqtda sodir bo'layotgan jarayonlarni xisobga olib harakat qiladi. Demak, jamiyat taraqqiyoti insonning madaniy-ma'naviy saviyasi, uning dunyoqarashi, faolligi bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun ham bu masala hech qachon faylasuflar diqqat-e'tiboridan chetda qolgan emas. Ayniqsa, insonni ichki dunyosi, kayfiyatlari, qiziqishlari, ruhiy iztiroblari masalasi sharq faylasuflarini azal-azaldan qiziqtirgan va tashvishga solgan.

Dunyoning oliy mavjudoti, duru-gavhari xisoblangan odamzod haqida Qur'oni Karim va Hadisu Sharifda ham qimmatbaho fikrlash aytilgan.

Ma'naviyat va iqtisodiyot bir-birini hech qachon inkor etmaydi, balki bir-birini o'zaro qo'llab-quvvatlaydi, biridan ikkinchisi ta'sirlanadi.

Ma'naviyat insonning xayotiy tajribasi asosida shakllanib boradi. Ma'naviyat insonning xayoti va faoliyatiga maqsad va yo'nalish beradi. Ma'naviyat kishiga o'z halqi tarixini, uning ma'daniyati va vazifalarini chuqurroq bilish va tushunib etishga yordamlashadi. Inson ma'naviyatsiz yashay olmaydi. Ma'naviyat alohida bir inson uchungina emas, jamiki oldamlar uchun ham, xalq, elat va millat uchun ham, jamiyat va uning taraqqiyoti uchun ham o'ta zarur va muhimdir. Ma'naviyatsiz inson bo'lmaganidek, ma'naviy etuk, ahloqan pok va mukammal insonlarsiz jamiyat va millat ham bo'lmaydi.

Ma'naviyat insonga hos bo'lgan ichki, ruhiy holatgina emas, balki jamiyat, davlat, millat taraqqiyotining ham asosiy omillaridan biridir. «Ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi» [6, B.54].

Shaxs ma'naviyati millat, davlat va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismidir. SHaxsning ma'naviy kamoloti jamiyatda mavjud bo'lgan ko'p qirrali munosabatlar, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy imoniyat va shart-sharoitlar asosida shakllanadi va amalga oshadi. Millat va mamlakatning madaniy-ma'naviy taraqqiyoti inson kamolotiga asos bo'ladi.

Ma'naviyat insonga suv va havodek zarur. Sahrodagi sayyoh har diom buloqdan chanqog'ini bosadi. Xuddi shuningdek inson ham necha-necha azoblar va qinchiliklar bilan ma'naviyat chashmasini izlaydi. Er, oila, ota-ona, bolalar, qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik-ma'naviyatning ma'nosi ana shunday keng

Ma'naviyat insonga muayyan maqsad, kelajakka ishonch bilan borish uchun katta umid, kuch va qadrat baxsh etadi.

Jamiyatning, davlat, halq va millatning, shaxsning ma'naviyatga bo'lgan ehtiyoji shu qadar katta va benihoyaki, uni hech qachon ikkinchi o'ringa surib qo'yish ham, shuningdek, ma'naviyat masalasiga iqtisodiy muammolarni xal qilib bo'lgandan keyin o'tish mumkin, deb o'ylash ham tamomila xatodir. Darhaqiqat, ma'naviyatni yuksaltirish, eyish, ichish, kiyinishga nisbatan ham muhimroqdir.

Ma'naviyat barqaror bo'lmagan joyda ne'matlar ishlab chiqarish va iste'mol qilish madaniyati yuksak bo'lmaydi. Dunyoga kelishdan maqsad eb-ichish, qorin to'ydirib boylik ottirshi deb hisoblagan odam yuksak ma'naviyat sohibi bo'la olmaydi. Ma'naviy qashshoq bo'lgan odam to'q, farovon, madaniy turmush kechirish me'yorlarini ham bilmaydi. Ma'naviyati etuk insonlar kelajakni oldindan ko'rishga, qinchiliklarni engishga, og'ir sharoitda ham yuksak maqsadlarni oldiga qo'yib, ularga iymon va e'tiqod bilan intilishga qodir bo'ladi.

Ma'naviyat odamlarni jamiyat, odob-ahloq normalari asosida, huquqiy asosda yashash va faoliyat ko'rsatishga, insonparvarlik, xalollik, baynalmilallik g'oyalariga qat'iy sodiq bo'lishga yo'naltiradi.

Manaviyat insonga o'zligini anglab olishda yordam beradi. O'zligini anglagan insonga, o'zligini angalagan millatga, kuchli davlat, adolatli jamiyat barpo eta oladi. O'zligini anglagan inson, o'zligini anglagan millat ulug' ajdodlarning aqlu zakovati bilan yuzaga kelgan hayotbaxsh meroslarni bilib oladi va unga munosib bo'lishga harakat qiladi. Vatanini o'zgacha mehr bilan sevadi, u bilan cheksiz faxrlanadi, yurtim deb, elim deb yashaydi.

Ma'naviyat inson hayotini go'zallashtiradi, turmushga mazmun va mohiyat bog'laydi. Yuksak ma'naviyat va madaniyat sohibi bo'lgan insonning qalbi pok bo'ladi.

Ma'naviyati yuksak inson mahalliychilik, guruhbozlik, tarafkashlikka hech qachon yo'l qo'ymaydi, boshqalardan o'zini ajratmaydi, boshqa kishilarga katta hurmat va ehtirom bilan qaraydi, qo'lidan kelgan muruvvatini boshqalardan ayamaydi, qilgan yaxshiligini ta'nayu minnat qilib, kishilar yuziga solmaydi. Bunday odam elu yurti, millati bilan cheksiz faxrlanadi, uni deb yashaydi. Xalqi, millati kamolotiga biron-bir hissa qo'shsa o'zini baxtiyor hisoblaydi.

Xullas, jamiyat taraqqiyoti, millat istiqboli va kuch-qudratini ma'naviyatdan ajratib tasavvur etish mumkin emas. Ma'naviyati yuksak darajada rivojlangan millatgina porloq istiqbol uchun kurashishga o'zida kuch va qudrat topadi. Ma'naviyat oldinga qarab harakat qilishga, taraqqiyotning yuksak cho'qqilari sari to'xtovsiz intilishga ko'maklashadi. Ma'naviy barkamollik bo'lgan joyda taraqqiyot bo'ladi. Ma'naviyat insonning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir.

ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. Tulenov J. Qadiryatlar falsafasi. - Toshkent: Fan, 1998.
2. Мусурмонова О. Маънавий қадриятлар ва ёшлар тарбияси. -Тошкент: Ўқитувчи-1996.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. -Тошкент: Ўзбекистон. 1998.
4. Каримов И.А. Миллий истиклол мафкураси- халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. -Тошкент: Узбекистон, 2000.
5. Rahmonov R., G'ofurov Z. Mustaqillik va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi. - Toshkent, 1999.
6. Murodov M., Qoraboyev U., Rustamova R. Etnomadaniyat. - Toshkent: Adolat, 2003.

ISSN: 2181-4562
DOI Journal 10.56017/2181-4562

МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 3-СОН

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-3

JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-3

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz